



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li	
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam	
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK	53
Kambarova Liliya Ruslanovna	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ	56
Алибекова Саодат Лапасовна	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	61
Usmonova Dilfuza Iloxomovna	
O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li	
KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	72
Xaydarova Kamola Axinjanovna Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li	
KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISSLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna Xolmurodova Sevara Asqarovna	
DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	84
Guzal Navruzova	
KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna	
MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI	94
Uralov Eliboy Omonovich	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH	100
Dilfuza Xamzayeva Xurshid Xurramov	
TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH	106
Otaxonova Roza Boboxon qizi	
APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES.....	111
Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna	
INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI	118
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	122
Yahyojonov Niyozxo'ja Bahroil o'g'li	
ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI.....	128
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI	133
Xatamova Gavhar Kiyamovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	138
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Seitnazarov Baxadir Muratbaevich

E-mail: seitnazarovbaxadir@gmail.com

TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida suv resurslaridan samarali foydalanish sharoitida suv tejoychi texnologiyalarni joriy etishni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari kompleks ilmiy yondashuv asosida o'rganilgan. Iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi va yer degradatsiyasi sharoitida agrar sektorda suvdan foydalanish samaradorligini oshirishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ahamiyati chuqur tahlil qilingan.

Tadqiqotda suv tejoychi texnologiyalar, xususan, tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish tizimlarini joriy etish natijasida suv sarfini qisqartirish, hosildorlikni oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Shu bilan birga, Food and Agriculture Organization va World Bank ma'lumotlari asosida ushbu texnologiyalarning samaradorligi xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Maqolada davlat tomonidan qo'llanilayotgan moliyaviy instrumentlar — subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, grantlar va davlat dasturlarining amaldagi holati baholanib, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda qamrov darajasi tahlil qilingan. Aniqlanishicha, mavjud qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ijobiy natijalar berayotgan bo'lsa-da, ularning institutsional samaradorligi va amaliy qamrovi yetarli darajada emas.

Shuningdek, tadqiqot doirasida moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular orasida subsidiyalar mexanizmini optimallashtirish, uzoq muddatli imtiyozli kreditlashni kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni jalb etish hamda raqamli monitoring tizimlarini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari Qoraqalpog'iston Respublikasida suv resurslaridan oqilona foydalanish, agrar sektor samaradorligini oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ular davlat agrar va moliyaviy siyosatini takomillashtirishda metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: suv tejoychi texnologiyalar, davlat moliyaviy qo'llab-quvvatlashi, agrar sektor, Qoraqalpog'iston Respublikasi, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, suv resurslari, iqtisodiy samaradorlik, tomchilatib sug'orish.

Abstract. This article examines the issues of improving state financial support mechanisms for the introduction of water-saving technologies in the Republic of Karakalpakstan under conditions of efficient water resource management, based on a comprehensive scientific approach. The economic, environmental, and social significance of increasing water use efficiency in the agricultural sector under conditions of climate change, water scarcity, and land degradation is thoroughly analyzed.

The study substantiates the potential for reducing water consumption, increasing crop yields, and lowering production costs through the implementation of water-saving technologies, particularly drip and sprinkler irrigation systems. In addition, based on data from the Food and Agriculture Organization and the World Bank, a comparative analysis of the effectiveness of these technologies with international experience is conducted.

The article evaluates the current state of state financial instruments—subsidies, concessional loans, grants, and government programs—and analyzes their economic efficiency and coverage. It is found that although the existing support mechanisms yield positive results, their institutional effectiveness and practical coverage remain insufficient.

Furthermore, the study develops priority directions for improving the financial support system, including optimizing subsidy mechanisms, expanding long-term concessional lending, attracting investments through public-private partnerships, and introducing digital monitoring systems.



The research findings have significant scientific and practical importance for the rational use of water resources, improving the efficiency of the agricultural sector, and ensuring food security in the Republic of Karakalpakstan, and they may serve as a methodological basis for improving state agricultural and financial policy.

Key words: water-saving technologies, state financial support, agricultural sector, Republic of Karakalpakstan, subsidies, concessional loans, water resources, economic efficiency, drip irrigation.

Аннотация. В данной статье на основе комплексного научного подхода исследованы вопросы совершенствования механизмов государственного финансового стимулирования внедрения водосберегающих технологий в условиях эффективного использования водных ресурсов в Республике Каракалпакстан. Проведён глубокий анализ экономической, экологической и социальной значимости повышения эффективности водопользования в аграрном секторе в условиях изменения климата, дефицита воды и деградации земель.

В исследовании обоснованы возможности сокращения расхода воды, повышения урожайности и снижения производственных затрат за счёт внедрения водосберегающих технологий, в частности систем капельного и дождевального орошения. Наряду с этим на основе данных Food and Agriculture Organization и World Bank проведён сравнительный анализ эффективности данных технологий с международным опытом.

В статье дана оценка текущего состояния финансовых инструментов государственной поддержки — субсидий, льготных кредитов, грантов и государственных программ, а также проанализированы их экономическая эффективность и уровень охвата. Установлено, что существующие механизмы поддержки дают положительные результаты, однако их институциональная эффективность и практический охват остаются недостаточными.

Также в рамках исследования разработаны приоритетные направления совершенствования системы финансовой поддержки, среди которых особое значение имеют оптимизация механизма субсидирования, расширение долгосрочного льготного кредитования, привлечение инвестиций на основе государственно-частного партнёрства и внедрение цифровых систем мониторинга.

Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для рационального использования водных ресурсов, повышения эффективности аграрного сектора и обеспечения продовольственной безопасности в Республике Каракалпакстан и могут служить методологической основой для совершенствования государственной аграрной и финансовой политики.

Ключевые слова: водосберегающие технологии, государственная финансовая поддержка, аграрный сектор, Республика Каракалпакстан, субсидии, льготные кредиты, водные ресурсы, экономическая эффективность, капельное орошение.

KIRISH

Bugungi kunda global miqyosda suv resurslarining cheklanishi, iqlim o'zgarishi hamda ekologik muammolarning keskinlashuvi qishloq xo'jaligi sohasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, yog'ingarchilikning notekis taqsimlanishi, haroratning ortishi va suv manbalarining qisqarishi agrar ishlab chiqarish barqarorligiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat, ayniqsa, suv resurslariga yuqori darajada bog'liq bo'lgan hududlarda yanada yaqqol sezilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasida mavjud ekologik vaziyat, jumladan, Orol dengizi fojiasi oqibatlari, yerlarning sho'rlanishi va suv tanqisligi agrar sektor samaradorligini keskin pasaytiruvchi omillar sifatida qaraladi. Sug'oriladigan yerlarning katta qismi turli darajada sho'rlangan bo'lib, bu holat hosildorlikning pasayishiga hamda ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, suv resurslarining notekis taqsimlanishi va mavjud irrigatsiya tizimlarining eskirganligi muammoni yanada murakkablashtirmoqda.

Food and Agriculture Organization ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha qishloq xo'jaligida jami suv resurslarining 70 % dan ortig'i iste'mol qilinadi. Shu sababli suvdan samarali foydalanish va uni tejamkor texnologiyalar asosida boshqarish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish orqali suv sarfini 30–50 % gacha qisqartirish va hosildorlikni 20–30 % gacha oshirish mumkin.

Shu nuqtai nazardan, suv tejavchi texnologiyalarni keng joriy etish, xususan, tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish tizimlarini rivojlantirish Qoraqalpog'iston Respublikasida agrar sektorni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq ushbu texnologiyalarni joriy etish yuqori boshlang'ich investitsiyalarni talab qilishi sababli fermer xo'jaliklari uchun moliyaviy jihatdan muayyan qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Shu bois davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, grantlar hamda davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiyalar suv tejavchi texnologiyalarni keng joriy etishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.



Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, suv resurslaridan samarali foydalanish va ularni iqtisodiy jihatdan asoslangan mexanizmlar orqali boshqarish Qoraqalpog'iston Respublikasida nafaqat agrar sektor samaradorligini oshiradi, balki hududiy barqaror rivojlanish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Shu asosda tadqiqotning:

- obyekti — qishloq xo'jaligida suv resurslari va sug'orish tizimlari;
- predmeti — suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari;
- maqsadi — davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot suv resurslaridan oqilona foydalanish va agrar sektorni barqaror rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish qishloq xo'jaligida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida keng o'rganilgan. Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, suv resurslarining cheklanganligi sharoitida agrar ishlab chiqarishni intensivlashtirish aynan innovatsion sug'orish texnologiyalariga tayanadi.

World Bank tadqiqotlariga ko'ra, tomchilatib sug'orish texnologiyalari suv sarfini o'rtacha 30–50 % gacha kamaytirish bilan birga, ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu texnologiyalar suvni bevosita o'simlik ildiziga yetkazib berish orqali suv yo'qotishlarini minimallashtiradi va natijada agrotexnik jarayonlarning samaradorligi ortadi.

International Water Management Institute hisobotlarida esa suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish natijasida hosildorlik 20–40 % gacha oshishi, ishlab chiqarish xarajatlari esa kamayishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shu bilan birga, mazkur institut tadqiqotlarida suv resurslaridan oqilona foydalanish agrar sektor barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi.

Food and Agriculture Organization tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim instrumenti sifatida e'tirof etiladi. Ushbu manbalarda irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish orqali suvdan foydalanish samaradorligini keskin oshirish mumkinligi ta'kidlanadi.

Mahalliy iqtisodiy tadqiqotlarda suv resurslaridan samarali foydalanishda davlatning moliyaviy siyosati hal qiluvchi omil sifatida qaraladi. Xususan, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va grantlar orqali fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishda asosiy rag'batlantiruvchi mexanizm hisoblanadi. Biroq ayrim tadqiqotlarda mavjud moliyaviy instrumentlarning qamrovi cheklanganligi hamda ulardan foydalanish mexanizmlarining murakkabligi qayd etilgan.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilmiy yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda takomillashtirish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va ularni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash samaradorligini kompleks baholash maqsadida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi.

Avvalo, tizimli tahlil usuli asosida suv resurslaridan foydalanish jarayoni yagona iqtisodiy tizim sifatida o'rganildi. Ushbu yondashuv orqali suv resurslari, texnologiyalar, moliyaviy instrumentlar va agrar ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlashtirildi.

Statistik tahlil usuli yordamida so'nggi yillardagi suv iste'moli, hosildorlik hamda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish ko'rsatkichlarining dinamikasi o'rganildi. Bu esa mavjud tendensiyalarni aniqlash va ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali xalqaro tajriba va mahalliy amaliyot solishtirildi. Xususan, rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlarda qo'llanilayotgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi baholanib, ular asosida ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Shuningdek, iqtisodiy samaradorlikni baholash usullari yordamida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishning xarajat va foyda ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Bunda investitsiya samaradorligi, xarajatlarning qoplanish muddati hamda qo'shimcha daromad ko'rsatkichlari inobatga olindi.

Mazkur metodologik yondashuvlar majmuasi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy va moliyaviy jihatlarini har tomonlama baholash imkonini berdi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida suv tejevchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha muhim ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda va bu yo'nalishda barqaror rivojlanish tendensiyasi shakllanib bormoqda. So'nggi yillarda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan keng ko'lamlı qo'llab-quvvatlash choralari natijasida suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha yangi imkoniyatlar yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, mavjud holat ushbu texnologiyalarni yanada kengroq joriy etish va ularning samaradorligini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Mazkur yo'nalishda rivojlanishni jadallashtirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- suv resurslaridan foydalanishni optimallashtirish orqali irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish va suv yo'qotishlarini bosqichma-bosqich qisqartirish;

- suv tejevchi texnologiyalarni joriy etishda investitsiya jozibadorligini oshirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish;

- kichik fermer xo'jaliklari uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini yaxshilash va kreditlash tizimini takomillashtirish;

- fermerlar va agrar soha vakillarining moliyaviy va texnologik savodxonligini oshirish orqali innovatsion yechimlarni samarali qo'llashni rag'batlantirish;


- axborot, maslahat va konsalting xizmatlarini rivojlantirish orqali zamonaviy texnologiyalarni joriy etish jarayonini institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Statistik tahlil

1-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasida suv tejevchi texnologiyalarni joriy etish ko'rsatkichlarining 2020–2024-yillardagi dinamikasi

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
Tomchilatib sug'orish ulushi (%)	8	11	15	19	22
Suv tejalishi (%)	20	25	30	35	40
Hosildorlik o'sishi (%)	10	15	18	22	25
Subsidiyalar ulushi (%)	20	25	28	32	35

Ko'rsatkichlar dinamikasi shuni ko'rsatadiki, suv tejevchi texnologiyalarni joriy etish natijasida suvdan foydalanish samaradorligi izchil oshib bormoqda va hosildorlik barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Bu esa agrar sektorda resurslardan samarali foydalanish darajasining ortib borayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, joriy etish sur'atlarini yanada jadallashtirish mavjud ijobiy natijalarni kengaytirish va soha ehtiyojlarini to'liq qondirish imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash tarkibi

Taqdim etilgan diagramma suv tejevchi texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy manbalar tarkibini aks ettiradi hamda ularning o'zaro nisbatini baholash imkonini beradi. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, eng katta ulush davlat subsidiyalariga (40 %) to'g'ri keladi. Mazkur holat agrar sektorda, ayniqsa yuqori boshlang'ich




investitsiyalar talab qilinadigan texnologiyalarni joriy etishda davlatning hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatadi. OECD tadqiqotlariga ko'ra ham davlat qo'llovi agrar investitsiyalarning asosiy qismini shakllantiradi.

Ikkinchi muhim manba sifatida imtiyozli kreditlar (30 %) ajralib turadi. Bu esa bank-moliya tizimining suv tejavchi texnologiyalarni moliyalashtirishdagi faol ishtirokini bildiradi. World Bank ma'lumotlariga ko'ra, agrar sektorni rivojlantirishda imtiyozli kreditlash mexanizmlari investitsiya faolligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Xususiy investitsiyalar ulushi (20 %) nisbatan past bo'lib, bu sohada xususiy sektor ishtirokini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Buning asosiy sabablari sifatida yuqori risk darajasi hamda investitsiyalarning uzoq muddatda qaytishi bilan bog'liq omillarni keltirish mumkin.

Eng kichik ulush xalqaro grantlarga (10 %) to'g'ri keladi. Bu esa donor tashkilotlar ishtiroki mavjud bo'lsa-da, ularning umumiy moliyalashtirishdagi hissasi nisbatan cheklanganligini bildiradi (2-rasm).



2-rasm. Suv tejalishi va hosildorlik o'sishi dinamikasi

Taqdim etilgan diagramma suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish natijasida suv tejalishi va hosildorlik o'sishi o'rtasidagi dinamik bog'liqlikni aks ettiradi. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida har ikkala ko'rsatkich ham barqaror o'sish tendensiyasiga ega.

Xususan, suv tejalishi darajasi 25 % dan 40 % gacha oshgan bo'lsa, hosildorlik o'sishi 12 % dan 25 % gacha yetgan. Bu esa suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish natijasida resurslardan foydalanish samaradorligi izchil ortib borayotganini anglatadi. Mazkur natijalar Food and Agriculture Organization hamda International Water Management Institute tadqiqotlarida qayd etilgan ilmiy xulosalar bilan mos keladi.

Diagramma tahlili shuni ko'rsatadiki, suv tejalishi va hosildorlik o'sishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri ijobiy bog'liqlik (korrelyatsiya) mavjud. Ya'ni, suvdan samarali foydalanish nafaqat resurslarni tejaydi, balki ishlab chiqarish natijalarini ham yaxshilaydi. Bu esa agrar sektorda innovatsion sug'orish texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, o'sish sur'atlarining yildan-yilga ortib borishi davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining (subsidiyalar, imtiyozli kreditlar) ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ham anglatadi. World Bank ma'lumotlariga ko'ra, irrigatsiya texnologiyalariga yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat suvni tejaydi, balki fermer xo'jaliklari daromadlarini ham oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, diagramma natijalari suv tejavchi texnologiyalarni keng joriy etish agrar sektor samaradorligini oshirish, suv resurslarini tejash hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, statistik tahlillar hamda diagrammalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, Qoraqalpog'iston Respublikasida suv tejevchi texnologiyalarni joriy etish agrar sektorni barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Suv resurslarining cheklanganligi va ekologik muammolar sharoitida ushbu texnologiyalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki uzoq muddatli ekologik barqarorlikni ham ta'minlaydi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, suv tejevchi texnologiyalarni joriy etish orqali suv sarfi o'rtacha 25–40 % gacha qisqaradi, hosildorlik esa 15–25 % gacha oshadi. Bu esa agrar ishlab chiqarishning intensiv rivojlanishiga xizmat qilib, fermer xo'jaliklari daromadlarining oshishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mavjud bo'lishiga qaramay, ularning qamrovi va samaradorligi hali yetarli darajada emasligi aniqlandi. Ilmiy xulosalar shuni ko'rsatadiki, suv tejevchi texnologiyalar resurslardan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi hamda suv yo'qotishlarini kamaytiradi, hosildorlikning o'sishi esa suvni tejash bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud. Davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, xususan subsidiyalar va imtiyozli kreditlar, texnologiyalarni joriy etishda asosiy rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi, biroq mavjud moliyaviy mexanizmlar institutsional va tashkiliy jihatdan yanada takomillashtirishni talab etadi hamda xususiy sektor ishtirokining yetarli darajada emasligi investitsiya hajmini cheklab qo'yimoqda. Shu munosabat bilan, suv tejevchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish maqsadida davlat subsidiyalarini ajratish mexanizmini soddalashtirish va ularning hajmini oshirish, subsidiyalarni bevosita texnologiyalar xaridiga yo'naltirish orqali fermerlar uchun boshlang'ich investitsiya yukini kamaytirish, suv tejevchi texnologiyalar uzoq muddatli investitsiya xususiyatiga ega ekanligini inobatga olib 5–10-yil muddatga past foizli kreditlash tizimini kengaytirish, irrigatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish orqali xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish, fermer xo'jaliklari uchun moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan o'quv dasturlari va treninglarni tashkil etish, shuningdek suv resurslarini boshqarishda zamonaviy raqamli monitoring, sensor tizimlari hamda GIS texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, World Bank, Asian Development Bank va Food and Agriculture Organization kabi xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali grantlar va investitsiyalar hajmini oshirish imkoniyati mavjud. Umuman olganda, suv tejevchi texnologiyalarni joriy etish Qoraqalpog'iston Respublikasida agrar sektor samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri bo'lib, uning muvaffaqiyati davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash samaradorligi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi hamda institutsional islohotlarning chuqurligiga bog'liqdir. Kompleks yondashuv asosida ushbu tizimni takomillashtirish hududiy iqtisodiy rivojlanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Food and Agriculture Organization. (2021). The State of the World's Land and Water Resources for Food and Agriculture (SOLAW). Rome.
2. World Bank. (2022). Irrigation and Water Efficiency in Agriculture. Washington, DC.
3. International Water Management Institute. (2020). Water Management for Sustainable Agriculture. Colombo.
4. OECD. (2021). Agricultural Policy Monitoring and Evaluation. Paris.
5. Asian Development Bank. (2021). Water Financing Program in Central Asia. Manila.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PP-4779-son qarori. "Suv resurslaridan samarali foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/docs/4890075>
7. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi. (2023). Qishloq xo'jaligida suv tejevchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha hisobot. Toshkent.
8. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). Qishloq xo'jaligi va suv resurslari statistik ma'lumotlari. Toshkent.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi 2020–2030-yillar" farmoni. <https://lex.uz/docs/-4567334>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
